

XII. DEMOGRAFIK HOLAT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga Toshkent shahri doimiy aholisi soni 2 955,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 93,3 ming kishiga yoki 3,3 % ga o'sdi.

Toshkent shahri tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2023- yilning 1-yanvar holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Toshkent shahri	2 955,6	2 955,6	-	103,3	103,3	-
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	293,4	293,4	-	102,7	102,7	-
Bektemir	55,8	55,8	-	108,8	108,8	-
Yunusobod	366,9	366,9	-	102,2	102,2	-
Mirzo Ulug'bek	323,1	323,1	-	102,9	102,9	-
Mirobod	149,4	149,4	-	102,4	102,4	-
Shayxontohur	360,6	360,6	-	101,7	101,7	-
Olmazor	394,9	394,9	-	102,5	102,5	-
Sergeli	162,2	162,2	-	110,8	110,8	-
Yakkasaroy	126,9	126,9	-	102,4	102,4	-
Yashnobod	289,5	289,5	-	103,9	103,9	-
Yangihayot	161,0	161,0	-	106,7	106,7	-
Chilonzor	271,9	271,9	-	102,0	102,0	-

Toshkent shahri tumanlari kesimida 2023-yil 1-yanvar holatiga eng ko‘p aholi soni Olmazor tumanida 394,9 ming kishini (Toshkent shahri aholi sonidagi ulushi (9,5%), Yunusobod tumanida 366,9 ming kishini (7,9 %), Shayxontohur tumanida 360,6 ming kishini (6,0 %) va Mirzo Ulug‘bek tumanida 323,1 ming kishini (9,1 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2023-yil 1-yanvar holatiga Toshkent shahri jami aholisiga nisbatan, foizda)




**Toshkent shahrida aholining tabiiy harakati
ko'rsatkichlari va koeffitsiyentlari
(yanvar-dekabr)**

Ko'rsatkichlar	Kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
Tug'ilganlar	63 034	73 879	22,3	25,4
O'lganlar	18 892	16 471	6,7	5,7
shu jumladan:1 yoshgacha o'lgan bolalar	695	852	11,5	12,3
Nikoh (<i>birlik</i>)	22 783	22 421	8,1	7,7
Ajrim (<i>birlik</i>)	5 571	5 901	2,0	2,0

Tug'ilish. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 73879 ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, 2021- yilning mos davriga (63034 ta bola) nisbatan 10845 ta bolaga ko'paydi, tug'ilish koeffitsiyenti 25,4 promilleni tashkil etdi.

**Aholining tug'ilish koeffitsiyenti
(yanvar-dekabr oylarida, 1000 aholiga, promille)**



Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli darajada o'sishi Bektemir (21,8 promilledan 30,7 promillega), Olmazor (25,1 promilledan 27,2 promillega), Yunusobod (21,5 promilledan 25,1 promillega), Mirzo Ulug'bek (15,8 promilledan 20,5 promillega), Sergeli (23,0 promilledan 34,9 promillega), Yakkasaroy (16,0 promilledan 24,0 promillega) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha tug'ilish koeffitsiyentining kamayishi Yangihayot (26,4 promilledan 24,0 promillega), tumanlarda kuzatildi.


O‘lim. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 16,5 ming kishini tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan (18,9 ming kishi) ga kamaydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 5,7 promilleni tashkil etdi (2021-yil yanvar-dekabr 6,7 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyenti yuqori darajasi 2021-yilga nisbatan Mirzo Ulug‘bek (7,3 promilledan 8,0 promillega) tumanida kuzatildi.

O‘lim koeffitsiyentining past darajasi Shayxontohur (3,8 promille), Yakkasaroy (3,9 promille) va Yangihayot (3,0 promille) tumanlarida qayd etildi.

Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 60,0 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 12,7 % o‘simtalardan, 4,6 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 6,3 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,6 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,8 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 8,8 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi bo‘yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foizda)



Nikoh va ajrimlar. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 22,4 mingta nikoh va 5,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,7 promilleni (2021-yil yanvar-dekabr oylarida 8,1 promille bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2,0 promilleni (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 2,0 promille bo‘lgan) tashkil etdi.

Nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar koeffitsiyentlari

(2022-yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga, promille)



Nikoh tuzish koeffitsiyentining sezilarli darajada kamayishi Olmazor (7,8 dan 7,0 promillega), Yashnobod (8,0 dan 6,8 promillega), Yangihayot (8,1 dan 6,1 promillega).


Nikoh va ajrimlar soni

(yanvar-dekabr)

(birlikda)

	Nikohlar		Ajrimlar	
	2021- yil	2022 -yil	2021 -yil	2022- yil
Toshkent shahar	22 783	22 421	5 571	5 901
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	2 683	2 418	530	583
Bektemir	469	510	116	146
Yunusobod	3 057	3 186	741	760
Mirzo Ulug'bek	2 038	1 992	580	649
Mirobod	1 086	1 025	378	275
Shayxontohur	2 688	2 563	542	632
Olmazor	2 976	2 712	642	738
Sergeli	975	1 261	331	496
Yakkasaroy	1 153	1 565	238	270
Yashnobod	2 184	1 943	624	612
Yangihayot	1 147	952	282	166
Chilonzor	2 327	2 294	567	574


Tumanlar kesimida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida nikohlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Nikoh. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikoh tuzish darajasi Yunusobod tumanida 3 057 ta, Olmazor tumanida 2 976 ta, Shayxontohur tumanida 2 688 ta, Uchtepa tumaniga 2683 ta to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikoh tuzish darajasi Sergeli 975 ta, Yangiheyot 952 ta, Bektemir 469 ta va tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar kesimida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida nikohdan ajralishlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Ajrim. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikohdan ajralishlar darajasi Olmazor 738 ta, Yunusobod 760 ta, Mirzo Ulug'bek 649 ta va Shayxontohur 632 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikohdan ajralishlar darajasi Bektemir 146 ta, Yangihayot 166 ta va Yakkasaroy 270 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Aholi migratsiyasi

(yanvar-dekabr)

(kishi)


	Kelish		Ketish		Migratsiya saldosi	
	2021-y.	2022- y.	2021-y.	2022- y.	2021-y.	2022- y.
Toshkent shahri	111 919	99 064	73 660	63 219	38 259	35 845
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	8 514	7 311	7 124	6 947	1 390	364
Bektemir	1 650	4 351	1 756	1 202	-106	3 149
Yunusobod	9 065	7 703	7 271	6 794	1 794	909
Mirzo Ulug'bek	9 423	11 218	6 585	6 091	2 838	5 127
Mirobod	5 582	5 070	3 981	4 008	1 601	1 062
Shayxontohur	6 199	5 491	6 398	6 579	-199	-1 088
Olmazor	7 457	6 997	6 455	6 099	1 002	898
Sergeli	20 290	16 425	14 431	5163	5859	11 262
Yakkasaroy	4 530	3 816	3310	3418	1220	398
Yashnobod	11 680	12 242	5 885	5 930	5 795	6 312
Yangihayot	17 086	10 098	1 827	3 214	15 259	6 884
Chilonzor	10 443	8 342	8 637	7 774	1 806	568

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkeny shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 99,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 63,2 ming kishini tashkil etdi.

Shunga muvofiq, migratsiya saldosiy plus 35,8 ming kishini tashkil etib, 2021-yilning mos davrida 38,3 ming kishini tashkil etgan.

Migratsiya saldosiyning yuqori darajasi Sergeli (plus 11,3), Yashnobod (plus 6,3), Yangihayot (plus 6,8) tumanlarida qayd etildi.

Aholiyning tabiiy va mexanik harakatlari to'g'risida ma'lumot
(2022- yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga, promille)



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.